I.SANOAT

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024-yil 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni 2 810 taga yetdi. Bu ko‘rsatkich 2023-yil 1-oktabr holatiga nisbatan 360 ta yoki 88,6 foizga kamaygan.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatda 429 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo‘lib, ularning 12,6 foizi Karmana tumani, 10,5 foizi Xatirchi tumani, 19,6 foizi Navoiy shahri, 15,9 foizi Navbahor tumani, 11,4 foizi Qiziltepa tumani hissalariga to‘g‘ri keldi.

2024- yil 1- oktabr holatiga shahar va tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlikda

	faoliyat yuritayotgan	*shundan,*		*2024- yil yanvar- sentabr oylarida tashkil etilgan*
		yirik korxonalar	*kichik biznes*	
Jami	**2 810**	**30**	**2780**	**429**
Navoiy sh.	637	14	623	84
Zarafshon sh.	214	1	213	18
G‘ozg‘on sh.	232	-	232	32
Konimex t.	78	1	77	26
Qiziltepa t.	291	2	289	49
Navbahor t.	223	4	219	68
Karmana t.	453	4	449	54
Nurota t.	200	1	199	26
Tomdi t.	70	1	69	14
Uchquduq t.	126	-	126	13
Xatirchi t.	286	2	284	45

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik

(2024- yil 1- oktabr holatiga)



Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik

(2024- yil yanvar- sentabr)



Sanoat – *bu xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o‘zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog‘i hisoblanadi.*

2024- yil yanvar- sentabr oylarida sanoat mahsuloti hajmi 102 069,1 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati) 107,8 foizni tashkil etdi.

Jumladan, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash 12 429,3 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati) 105,3 foizni, qayta ishlash sanoati 83 581,8 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati) 109,5 foizni, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havonikonditsiyalash 5 964,6 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati) 97,5 foizni, suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish 93,4 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati) 70,9 foizni tashkil etdi.

2024- yil yanvar- sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish

	mlrd. so‘m	*fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati, % da)*
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	**102 069,1**	**107,8**
Tog‘ - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	**12 429,3**	**105,3**
ulardan:		
Metall rudalarini qazib olish	12 008,0	104,1
Boshqa turdagi tog‘-kon sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish	421,3	152,8
Qayta ishlash sanoati	**83 581,8**	**109,5**
undan:		
Oziq - ovqat mahsulotlari, ichimliklar tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	3 501,7	112,2
To‘qimachilik mahsulotlari, kiyimlar, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	3 303,9	125,5
Yog‘och va po‘kak buyumlar, pohol va to‘qish uchun materiallardan buyumlari, qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari, mebellar ishlab chiqarish	252,1	150,3

davomi

	mlrd. so‘m	*fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati, % da)*
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	49,2	169,5
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	1,5	72,1
Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	5 767,2	105,6
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	11,9	105,8
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	2 202,6	92,3
Metallurgiya sanoati	65 875,2	112,8
Mashina va uskunalardan tashqari, tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	564,2	11,5
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	254,5	2,5 m.
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	402,3	77,5
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	652,3	99,0
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	455,1	95,8
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	2,3	108,1
Mashina va uskunalarni ta‘mirlash va o‘rnatish	285,7	2,3 m.
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	**5 964,6**	**86,7**
Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	**93,4**	**126,6**

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi





Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, 83 581,8 mlrd. so‘mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 81,9 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish sanoatida - 26,6 foizga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatda – 9,5 foizga, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 5,3 foizga o‘sishi kuzatildi.

Shuningdek, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashda - 13,3 foizga pasayishi kuzatildi.

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash *– tabiatda qattiq jinslar shaklida uychraydigan (ko‘mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o‘z ichiga oladi.*

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12 429,3 mlrd so‘m yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 12,2 % ga to‘g‘ri keldi.







Ishlab chiqaradigan sanoat

Ishlab chiqaradigan sanoat *– bu tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma'lum turi uchun birdan – bir to'liq me'zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o'z ichiga oladi.*

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 83 581,8 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 81,9 % ni tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida – 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 8,5 % (9,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 82,7 % (81,6 %) va quyi texnologiyalisi – 8,5 % (8,4 %)ni tashkil etdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish (yirik korxonalar bo‘yicha)

	O‘lchov birligi	*2024- yil yanvar-sentabr*	*O‘sish sur‘ati, % da*
Tog‘- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash			
Чақиқ тош	*tn.*	101 085,7	2,7 m.
Qayta ishlash sanoati			
Tvorog va tvorogdan mahsulotlar	*tn.*	67,3	103,3
Mashinada yoki qo‘lda to‘qilgan trikotaj futbolkalar, maykalar va boshqa ichdan kiyiladigan fufaykalar	*ming dona.*	2 203,8	127,1
Erkaklar yoki o‘g‘il bolalar uchun ishchi va kasbiy komplektlar va kostyumlar, kurtkalar va pidjaklar	*ming dona.*	243,6	118,7
Argon	*ming.m^3*	995,5	6,4 m.
Azot	*ming.m^3*	124,6	158,4
Kislorod	*ming.m^3*	480,8	5,0 m.
Uglerod dioksidi	*tn*	7 918,9	113,8
Fosfinatlar, fosfonatlar, fosfatlar va polifosfatlar	*ming. tn.*	432,1	120,7
Natriy sianidlari va sianidoksidlari	*ming. tn.*	39,0	105,6
Suvsiz ammiak	*ming. tn.*	553,2	109,5
Superfosfatlar	*ming tn P_2O_5*	1,2	84,4
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar	*tn.*	8 570,7	75,4
So‘ndirilmagan va so‘ndirilgan ohak	*tn.*	246 241,4	3,8 m.
Metalldan yig‘ma binolar	*tn.*	391,1	89,1
Fungitsidlar	*tn.*	5,9	112,9
Metanal (formaldegid)	*tn.*	1 643,3	122,5
Mochevina (karbamid)	*ming tm azot.*	196,1	122,2

Argon ishlab chiqarish

(2024- yilning yanvar-sentabr oylarida)

Argon *– rangsiz va hidsiz gaz, kimyo sanoatida inert muhit vujudga keltirishda, elektr lampochkalarini to'ldirishda, reklama naylarini (ko'k-havo rang shu'lalanadi) va yuqori chastotalar texnikasida ishlatiladigan naylarni to'ldirishda qo'llaniladi.*

Viloyatimizda 2024- yil yanvar-sentabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 995,5 ming m^3 argon ishlab chiqarildi. Argon ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,4 m. ga ko'paydi.



Uglerod dioksidi ishlab chiqarish

(2024- yilning yanvar-sentabr oylarida)

Uglerod dioksidi *– gazsimon uglerod dioksid suyuqligidan tashkil topgan (karbonat angidrid, karbon dioksid) bo'lib, ammiak chiqindi gazlar, shuningdek, boshqa yonishmahsulotlar (past harorat suyuqlik, yuqori bosim suyuqlik va gaz) asosida olinadi.*

Viloyatimizda 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 7,9 ming tonna uglerod dioksidi ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 113,8 % ni tashkil etgan.



Kislorod ishlab chiqarish

(2024- yilning yanvar-sentabr oylarida)

Kislorod *– rangsiz, hidsiz va ta'msiz gaz. Kislorod eng faol (ftordan keyin) metallmas element, yengil inert gazlardan boshqa hamma elementlar bilan kimyoviy birikmalar hosil qiladi.*

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida jami 480,8 ming m^3 kislorod ishlab chiqarildi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,0 m. ga ko'paydi.





Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarish

(2024- yilning yanvar-sentabr oylarida)

Plastmassa quvurlar *– asosan, suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya tizimlarida qo'llanadi.*

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarishda, jami 8 570,7 tonna plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarildi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 75,4 % ni tashkil etdi.



Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati *– cho‘yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho‘yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo‘shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.*

2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 78,8 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 12,8 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 65 875,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish *– kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.*

2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 6,6 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 105,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 5 549,4 mlrd. so‘mni tashkil etgan.



To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish *– to‘qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to‘qimachilik gazlamalarini va tayyor to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to‘qmachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.*

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,2 % ni tashkil etgan, o‘tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 28,0 % ga ko‘payib, ishlab chiqarish hajmi 1 841,6 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi..



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish *– barcha materiallardan (masalan, teri, to‘qimachilik gazlamalari, to‘qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo‘yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.*

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,7 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 23,3 % ga ko'payib va ishlab chiqarish hajmi 1 407,1 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Elektr, gaz bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash *– elektr energiya- sini, tabiiy gazni, bug‘ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog‘liq faoliyatni o‘z ichiga oladi.*

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5 964,6 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,8 % ini) tashkil etgan.



Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish *– qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig‘ish, qayta ishlash va yo‘qotish)ni o‘z ichiga oladi.*

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 93,4 mlrd.so‘mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % iga) to‘g‘ri keldi.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining asosiy ko‘rsatkichlari

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o‘sish sur’atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarilishida mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 376 ta loyiha bo‘yicha 4 975,9 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 50,3 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi. Shu bilan birga, 1 928 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi.

	Sanoat mahsuloti		*Jami sanoatdagi kichik biznes ulushi, % da*
	*mlrd. so‘m **	*fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati,) % da*	
Jami	**102 069,1**	**107,8**	**9,3**
Navoiy sh.	85 509,6	106,2	2,0
Zarafshon sh.	638,5	109,2	100,0
G‘ozg‘on sh.	127,0	109,8	100,0
Karmana t.	8 806,4	107,5	23,0
Konimex t.	628,5	105,5	47,1
Qiziltepa t.	1 151,3	109,1	97,2
Navbahor t.	967,7	108,5	52,4
Nurota t.	380,5	107,4	89,1
Tomdi t.	61,1	108,7	100,0
Uchquduq t.	389,5	109,2	100,0
Xatirchi t.	1 496,6	108,1	50,3

G‘ozg‘on shahri (2023- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan 109,8 %), Uchquduq tumani (109,2 %), Zarafshon shahri (109,2 %), Qiziltepa tumani (109,1 %) hamda Tomdi tumani (108,7 %) sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati) viloyat ko‘rsatkichidan (107,8 %) yuqoriligini qayd etishimiz mumkin.

**) 2024- yil ma’lumotlari yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda shakllantirilgan*


G‘ozg‘on sh.
127,0
109,8
Uchquduq t.
389,5
109,2
Zarafshon sh.
638,5
109,2
Qiziltepa t.
1 151,3
109,1
Tomdi t.
61,1
108,7
Navbahor t.
967,7
108,5
Xatirchi t.
1 496,6
108,1
Karmana t.
8 806,4
107,5
Nurota t.
380,5
107,4
Navoiy sh.
85 509,6
106,2
Konimex t.
628,5
105,5
mlrd. so‘mda
FHI, % da
yanvar-sentabr
mlrd. so‘mda
62 743,9
72 996,6
102 069,1
2022- y.
2023- y.
2024- y.
yanvar-sentabr
FHI, % da
105,3
105,8
107,8
2022- y.
2023- y.
2024- y.

2024- yil yanvar- sentabr oylari yakunlari bo‘yicha hududlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

	Sanoat mahsulotlari, ming so‘m	
	2023	2024
Jami	**68 670,5**	**94 276,4**
Navoiy sh.	393 588,8	523 766,7
Zarafshon sh.	4 824,2	7 157,9
G‘ozg‘on sh.	9 218,1	13 684,6
Karmana t.	48 857,6	62 960,7
Konimex t.	13 750,1	16 837,1
Qiziltepa t.	8 079,7	7 069,2
Navbahor t.	5 657,1	7 960,8
Nurota t.	3 336,4	4 227,6
Tomdi t.	2 850,4	3 962,3
Uchquduq t.	6 694,8	9 882,9
Xatirchi t.	2 718,2	6 979,0

2024- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish, ming so‘m



2024- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori hajmi Navoiy shahriga (523 766,7 ming so‘m), Karmana tumaniga (62 960,7 ming so‘m), Konimex tumaniga (16 837,1 ming so‘m), G‘ozg‘on shahriga (13 684,6 ming so‘m), Uchquduq tumaniga (9 882,9 ming so‘m) va Navbahor tumaniga (7 960,8 ming so‘m) to‘g‘ri keldi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 4 715,0 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Joriy yilda qo‘shma korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 4,6 foizni tashkil etdi.

	Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish		shu jumladan, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarda	
	mlrd. so‘m	Fizik hajm indeksi (o‘sish sur‘ati), % da	mlrd. so‘m	Ulushi, % da
Jami	**102 069,1**	**107,8**	**4 715,0**	**4,6**
Navoiy sh.	85 509,6	106,2	3 419,6	4,0
Zarafshon sh.	638,5	109,2	55,5	8,7
G‘ozg‘on sh.	127,0	109,8	5,9	4,7
Karmana t.	8 806,4	107,5	959,6	10,9
Konimex t.	628,5	105,5	22,5	3,6
Qiziltepa t.	1 151,3	109,1	97,5	8,5
Navbahor t.	967,7	108,5	84,6	8,7
Nurota t.	380,5	107,4	7,2	1,9
Tomdi t.	61,1	108,7	0,4	0,7
Uchquduq t.	389,5	109,2	1,3	0,3
Xatirchi t.	1 496,6	108,1	60,9	4,1

Sanoat mahsulotlari hajmida chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ulushi, % da

2023- yil yanvar- sentabr



2024- yil yanvar- sentabr



Viloyatning boshqa korxonalari
Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlari sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, % da



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesni hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub‘ektlari tomonidan 7 930,6 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi hamda kichik korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 9,3 foizni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi, mlrd. so‘m



2024- yil yanvar- sentabr oylarida hududlar bo‘yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, % da

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulush Uchquduq tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (100,0 %), Tomdi tumanida (100,0 %), G‘ozg‘on shahri (100,0 %), Zarafshon shahri (100,0 %), Qiziltepa (97,2 %), Nurota (89,1 %), Xatirchi (50,3 %), Navbahor (52,4 %), Konimex (47,1 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kam ulush Navoiy shahriga (2,0 %) hamda Karmana tumaniga (23,0 %) to‘g‘ri keldi.

Statistik ko‘rsatkichlarga tushuntirish

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi - korxona tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo‘ljallangan, o‘zining nosanoat bo‘linmalariga va kapital qurilishga mo‘ljallangan mahsulotlar hajmini o‘z ichiga oladi; ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar);

Sanoat ishlab chiqarishida o‘zgarish indekslari - solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir;

Natura ko‘rinishida sanoat ishlab chiqarish hajmi - boshqa korxonalarga jo‘natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo‘ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o‘z ichiga oladi, ya‘ni yalpi mahsulot;

Mahalliylashtirish darajasi - ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; mahalliylashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to‘lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo‘lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi;

Mahsulot sotish hajmi - savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno).